

## ZOKIRJON XOLMUHAMMAD O'G'LICH FURQAT HAYOTI MENING TASNIFIMDA

Lapasova Shabbona Abduqayum qizi

Toshkent Arxitektura Qurilish Instituti Materialshunoslik va yangi materiallar texnologiyasi yo'nalishi 3- bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7261603>

*Annotatsiya.* O'zbek xalqining zabardast shoiri, publist, g'azalnavs shoir, elshunos olim, mutarjimi. Bir qancha asarlari she'rlari va publistika yo'nalishidagi ilmiy asarlari bilan xalqimiz qalbidan joy olgan shoir. O'z zamonasining buyuklari qatoridan joy olgan shoir. Yoshligidanoq Muqimi, Muhyi, Zavqi, Nisbat, Muhayyir kabi shoirlarning zamondoshi. O'ziga ularni ustoz deb bilgan

*Kalit so'zlar:* "Furqat", XIV- XX asr ziyolilari, ilk to'plamlari, 1850-1910-yil tarixi, faoliyati.

## ЖИЗНЬ ФУРКАТА, СЫНА ЗАКИРЖОНА ХАЛМУХАММАДА, ВХОДИТ В МОЮ КЛАССИФИКАЦИЮ

**Аннотация.** Великий поэт узбекского народа, публицист, газелист, филолог, переводчик. Поэт, который занимает место в сердцах наших людей своими стихами и научными работами в области журналистики. Он один из величайших поэтов своего времени. С юных лет он был современником таких поэтов, как Мукими, Мухьи, Завки, Нисбат и Мухайир. Он считал их своими учителями.

**Ключевые слова:** «Фуркат», интеллигенция XIV-XX вв., первые коллекции, история, деятельность 1850-1910 гг.

## THE LIFE OF FURQAT, SON OF ZAKIRJON KHALMUHAMMAD, IS IN MY CLASSIFICATION

**Abstract.** Great poet of the Uzbek people, publicist, ghazalnavs poet, philologist, translator. A poet who has a place in the hearts of our people with his poems and scientific works in the field of journalism. He is one of the greatest poets of his time. From a young age, he was a contemporary of poets such as Muqimi, Muhyi, Zavqi, Nisbat, and Muhayyir. He considered them to be his teachers.

**Key words:** "Furqat", intellectuals of the 14th-20th centuries, first collections, history, activities of 1850-1910.

## KIRISH

Furqat – Zokirjon Mullo Xolmuhammad o'g'li 1859-yil Qo'qonda kichik savdogar-hunarmand oilasida tavallud topgan. Bo'lajak shoirning otasi ham zamonasining ilg'or fikrli odamlaridan bo'lган. Mullo Xolmuhammad ham badiiyatga qiziqqan inson bo'lган va uni o'zi ham she'rlar yozib turgan[1]. Zokirjon yoshligidan o'zlarini mahallasidagi mакtabda tahsil oladi. Bundan tashqari ham u otasidan o'zbek va fors adabiyotidan bo'lган shoirlarni asarlarini juda chuqur o'r ganadi. Ayniqsa Alisher Navoiyning asarlarini mukammal darajada o'r ganadi. Qisqa vaqtida fors tilini ham o'r ganib oladi. Zokirjonning o'zini yozishicha yoshligidan Navoiy asarlarini berilib mutoola qilar va u asarlarni maroq bilan o'qir edi. Shundan keyin bir kun tushida u Navoiyni ko'r ganini uni she'riyat yo'nalishida imtihon qilganini yozadi. Shundan keyin Navoiyni o'zi unga oq fotiha berib ketganini tasdiqlaydi. Zokirjon o'zi yozgan tarjimai holida keltirishicha uning ilk she'ri 9-yoshida yozilgan bo'lib u quyidagichadir:

Mening maktab aro buldur murodim,

Xatimdek chiqsa imlo-yu savodim[3]

## METOD VA METODOLOGIYA

Bunday she'rni yozish har kimga ham emas, menimcha, ayniqsa u 9-yosh bo'lsa Biz yaxshi bilamizki, shoirning o'zbek xalqi qalbida o'chmas bo'lган o'z o'rni bor. Shuning uchun ham mana II-asrdirki shoirning nomi tarix zarvaraqlaridan o'chmagan. Shu o'rinda shoirni barhayotlashtirish maqsadida, yosh avlodlar ongida buyuk ajdodlar hayotini, ular bosib o'tgan qonli va mashaqqatli yo'llar evaziga shu kunlar bunyod bo'lганini anglatish maqsadida bir qancha na'munali ishlar amalga oshirilmoqda. Shoirni nomi bilan nomlangan ko'chalar, xiyobonlar, institut, kollej maktab va boshqa jamoat joylari va binolari ham talaygina qad ko'tardi. Yana bir muhim tashabbuslardan biri bo'l mish shoirlar har bir oliy ta'lim dargohlariga biriktirilishi ularning nomini doim yodda tutishimiz kerakligini, ularning qattiq kurashlaridan keyin bu kunga yetganimizni unutmasligimiz, ularning pok xotirasiga yarshadigan, yuzlarini yorug' qilib yuradigan avlod bo'lishimiz kerakligini yana bir karra anglatib turmoqda.

Shunday ishlardan biri hisoblangan Toshkent arxitektura-qurilish institutiga ham shoirning nomi biriktirilgan va uning nomidan stipendiya ta'sis etilgandir. Bu insonni nomini yelkasida yorug' yuz bilan ko'tarib yurgan yigit va qizlarga bu stipendiya beriladi. Hozirda bu stipendiyaga ega chiqqan talabalar shoir nomini yuksak cho'qqilarga ko'tarib yuribdi. Bundan tashqari ham boshqa stipendiyalarga ham munosib ko'rilib kelinmoqda. Har yili bahorda bu stipendiyaga talabgorlar ro'yxati shakllantirilib yosh talabalarni har taraflama qo'llab quvvatlash maqsadida ajoyib tadbirlar uyshtirilib kelinmoqda. Albatta bunday e'tirofdan har bir talaba juda xursand bo'lishmoqda. Shoir hayotini o'rganar ekanman men ham u yashagan davrga tushib qolgandek bo'lman.

## TADQIQOT NATIJALARI

Zokirjon hushnavs va mudarrislardan ham xusnihat va hattotlik bo'yicha bir qancha ta'lim oladi va 1873-yili madrasaga o'qishga kiradi. 1875-1876-yillari bo'lган Qo'qon qonli urushidan keyin madrasa yopiladi va shoir yana mustaqil mutoola qilishga o'tadi[3]. Qo'qonning o'sha qonli va siyosiy urushi shoir hayotiga ham o'z ta'sirini o'tkasmasdan qolmadidi. 17-yoshga kirmasdan bu olamning fitnalariga guvoh bo'lishni boshlagan shoir endi oilasiga ham kerakli inson edi. Tog'asining qistovi bilan Marg'ilonga borib unga yordamchilik qiladi. Savdo ishlarini o'rganadi. Keyinchalik esa o'zining ham kichkina bo'lsada do'konini ochadi. U yerda "choy va digar ashylolar savdosig'a do'kon" ochadi va u yerda samovarchilik, mirzochilik qiladi. Xalqning ariza va bayonatlarini qog'ozga yozib shox huzuriga yetqazib turardi. Xalqning dard-u g'ami shoir tilidan chiqar ekan bir qancha she'r va g'azallarini paydo bo'lishiga ham olib kelgan bo'lsa ajabmas. Mirzochilik shoir hayotini oddiy xalq bilan ko'p vaqt birga bo'lishga, ularni hayotini o'rganishga imkon yaratadi. Bundan ko'rinish turibdi-ki, shoir o'n yetti yoshidan olamon orasida yurib uning hayot tarzini o'rgangan. Ularga kerakli bo'lган erkinlik yetishmayotganini, boylar oddiy xalq evaziga baxtli yashyotgan davrni ko'rib ulg'ayadi. Shunday insonlar bilan ulg'aygan shoir ularning dardini, alamini, baxtini, qayg'u va quvonchini ham o'z she'rлarida yoritib borgan. Shoir Marg'ilonda to'la shoir sifatida shakllandidi. U brogan davralar qizg'in she'rxonlik kechalariga aylanib ketar edi. Shoirni o'zi ham she'rxonlik kechalariga juda qiziqar va bunday kechalarni hech qachon o'tqazib yubormas edi. U bir qancha shoirlar davrasida kamol topgan. Shu sababli uning dunyoqarashi ancha yuqori edi. Keng fikrlaydigan, insonlar dardini oldindan anglaydigan, o'z fikriga ega, mustaqil inson, adabiyestetik tushunchalari rivojlangan inson bo'lган.

1880-yillar boshida u yana Qo'qonga qaytadi va u yerda oila quradi. Bundan keyin asosan ijodiy ishlar bilan shug'illanadi. Muqimiy va Muhyi yetakchi bo'lgan Zavqiy, Nodim, Nisbat, Muhayyir kabi ijodkorlar guruhi bilan bevosita muloqotda bo'ladi, bu yerda ular uyishtirib turadigan adabiy kechalarning ham faol azosiga aylanadi[2]. Qo'qonda o'tgan shoirning bu hayoti sermazmun va sermah'sul bo'lgan chunki o'sha kezlari shoir bir qancha g'azal va muhammaslar bitadi. Bundan tashqari u Navoiy g'azaliga nazira va tahmislar bog'lagan. Bu davrlar shoirning zamonaviy va ovropacha ruhda ulga'yish davri bo'lgan desak ham bo'ladi ("Bo'ldi" radifli muhammasi bunga misol). Furqat insonlarning siyosiy qaloqligidan juda qayg'urganlar. Siyosatni tushunish uchun esa albatta savod kerak edi. Savodli bo'lish ham oson bo'lмаган.

## MUHOKAMA

Qo'qon xonligining batamom tugatilishi va uning mustamlaka davlatga aylantirilishi bilan yozilgan: «Demish xon bir kunikim, davru davronlar qayon qoldi?» misrasi bilan boshlanuvchi muxammasi ham Furqatning shu davrdagi ijodi mahsulidir[2]. Do'st-yordan, mol-holidan hamda taxtidan ajrab qolgan Xudoyorxon tilidan bitilgan bu g'azal ham shoirning zamonaviy ijtimoiy-siyosiy doirada keng fikrli inson bo'lganini anglatadi. Shoirning yozgan she'rlari, muhammas va tahmislarida o'zining qalbi, go'zal va takrorlamas ruxdagi dunyoqarash, hayotning turfa ajoyibotlari, rang barang tabiat, insoniy dard va kechinmalar, hayotga bo'lgan qaynoq sevgi-muhabbat va nafrat, yorqin bahor tasavvurlari yaqqol bilinib turadi. Yana uning samimiyligi, mehribonligi, chin insoniy xislatlarini ham anglab olish mumkin. Bunga misol qilib shoirning: «Bahor ayyomida gulgasht etarga bir chaman bo'lsa», «Umr xush o'tmas bahor ayyomi sahro bo'lmasa», «Surmadin ko'zlar qaro, qo'llar xinodin lolarang», «Jannatning gullaridan gulzoringiz chiroylik», «Ko'ngul dardig'a topmay boraman hargiz davo istab», «Fasli navbahor o'ldi ketubon zimistonlar» kabi misralar bilan boshlanuvchi g'azallari, «Yetti falak», «Biri», «Istar ko'ngul», «Do'st», «Kokulung» radifli muxammaslari, Navoiy g'azallariga taxmislari davr she'riyatining ham g'oyaviy, ham badiiy jihatdan yetuk namunalari hisoblanadi[2]. Furqat taxminan, 1886-1887-yilda Marg'ilonga borib, Masjidul jome hujrasida istiqomat qiladi. U yerda ham bir qator taniqli ziylilar bilan tanishadi. Ilk bor gazeta bilan tanishgan Furqat uni Toshkentda chop etilishini ham shu yerda bilib oladi. 1889-yil u Toshkentga boradi va u yerdan Xo'jandga o'tib keyin yana Toshkentga qaytadi. U yerda bir muddat "Farhat" taxallusi bilan she'r yozadi. Shunday qilib u dunyo kezishni hayotdagi ajoyibotlarni o'z ko'zi bilan ko'rishni istadi. 1890-yildan boshlab udunyo kezish uchun yo'lga chiqadi. Ba'zi manbalarda keltirilishicha, Furqatni yurtidan atay chiqarib yuborgan, qayta kelmaydigan qilib degan taxminlar yuradi. Shu sabab u Marv—Ashxobod—Boku—Batumi orqali Istanbulga bordi. U yerdan Bulg'oriya va Yunonistonga, bolqon yarim oroliga boradi.

## XULOSA

U Istanbuldan 1892-yil Makkaga borib Haj ziyotini amalga oshiradi. Shunday qilib shoir Sharqiy Turkistonga borib u yerda abadiy yashab qoladi. U yerda oila quradi, do'kon ochadi. Bir qancha asralarini yozadi. 1909-yil, ona vatanidan uzoqda, 50-yoshida vafot etadi. Uning jasadi Yorkendning Dongdor qabristoniga ko'milgan. 1990 yil shoir qabri ustiga maqbara qurilgan. Shoir hayotini biz bunchalik tor doirada tasvirlab berolmas ekanmiz bu izlanishlarni keyingi sahfalarda davom ettirishimizga to'g'ri keladi.

**REFERENCES**

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Furqat>
2. <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-sheriyati/o-zbek-mumtoz-adabiyoti/furqat-1859-1909>
3. <https://saviya.uz/hayot/tarjimai-hol/furqat-1859-1909/>